

BOLALAR FOLKLORIDA HAZIL VA KULGIGA ASOSLANGAN JANRLAR

Nurmatova Madina Fayzullo qizi,

Buxoro davlat universiteti tayanch-doktoranti

E-mail:nurmatovamadinaxon.17@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada bolalar xalq og‘zaki ijodiga xos janrlar tarkibida uchraydigan hazil yoki satirik va yumoristik kulgi unsurlari ishtirok etgan o‘rinlar, shuningdek, bunday janrlarning o‘zaro o‘xshash hamda farqli jihatlari o‘rganilgan. Bolalar folklorida ham satirik kulgi asosiga qurilgan janrlar mavjudligi qayd etilib, misollar vositasida dalillangan.

Kalit so‘zlar: obraz tarkibi, motiv, tanqidiy ruh, satira, yumoristik kulgi

Аннотация. В данной статье рассматриваются места присутствия элементов юмора или сатирического и юмористического смеха в жанрах детского устного фольклора, а также сходства и различия между такими жанрами. Отмечается и подтверждается примерами существование в детском фольклоре жанров, основанных на сатирическом смехе.

Ключевые слова: композиция образа, мотив, критический дух, сатира, юмористический смех.

Abstract. This article presents the composition of genres characteristic of children ‘s oral folklore. The places where elements of humor or satirical and humorous laughter are present, as well as the similarities and differences between such genres, are studied. The existence of genres based on satirical laughter in children ‘s folklore is also noted and proven by examples.

Keywords: image composition, motif, critical spirit, satire, humorous laughter.

Kirish. Bugungi kunda jahon folklorshunosligida turli ko‘rinishlarda yetib kelgan bolalar folklori namunalarining janriy tabiati, obrazlar tarkibi va motivlarini o‘rganishga nisbatan qiziqish tobora ortib bormoqda. Barcha xalqlar og‘zaki ijodiyotida bo‘lganidek, o‘zbek bolalar folklorida ham yumoristik yoki hajviy xarakterdagi janrlar talaygina. Ular shaklan va hajman har xil bo‘lib, ijro xususiyatlari jihatidan ham o‘zaro farq qiladi. Bolalar hazil-mutoyibaga alohida rag‘bat bilan qarashadi. Bir-birlarida tabiiy yoki ma‘naviy qusur hamda kamchiliklarni payqashi bilan tap tortmasdan, ayamay, avvaliga nomga qofiyadosh laqab topib, keyinroq – jarayon chuqurlashgani sari hazilni ham yanada chuqurlashtirib mazax qilishadi, tegishishadi, hatto o‘rtog‘ining ota-onalaridagi nojo‘ya xatti-harakatlarni ham tengdoshining yuziga solishadi.

Adabiyotlar tahlili. Bolalar aql-idroklari to‘lisha borgani sari ijtimoiy voqelikka ham faolroq munosabatda bo‘lishga harakat qiladilar. Shu jarayonda payqagan ijtimoiy kamchiliklarini masxaralash darajasiga borib yetadilar. Ana shunday taassurot natijasida bolalar folklorida hajviy yoki satirik va yumoristik qo‘shiqlar yuzaga kelgan.

Satirik yo‘nalishdagi ayrim janrlarda oshkora fosh etuvchi tanqidiy ruh mazax qilish va masxaralash hoida namoyon bo‘ladi. Bunday aytimlar bolalar folklorida masxaralama deb nomlanadi va masxaralamalar satirik xususiyatga egaligi bois tegishmachoqlardan farq qiladi. Bu rus folklorshunos olimlari o‘rtasida anchayin muhokamalarga sabab bo‘lgan mavzudir. Ya‘ni, tadqiqotchi olim G.S.Vinogradov tegishmachoq va masxaralama janrlarini shaklan ajratib tasniflasi, M.N.Melnikov va O.I.Kapitsa ularning har ikkalasiga bir xil hodisa sifatida qarashadi. Ammo ijrosiga ko‘ra

ular o‘zaro farqlanmasa-da, tegishmashoqda yumoristik ohang, ya‘ni hazillashib tegishish xususiyati ustunlik qiladi. Masxaralamada esa qo‘pol tanqid, oshkora fosh etish ruhi satirik xarakter kasb etadi:

Bozorga bordim,

Kadini ko‘rdim.

Kallasi katta

Qozini ko‘rdim.

Ushbu masxaralamada bolalarning yuqori sinf vakillariga nisbatan nafratlari aks etib turibdi. Chunki ularning o‘tmishda mehnat ahli ustidan o‘tkazgan zug‘umlari jajji bolalar ongiga ham o‘z ta‘sirini o‘tkazmay qolmagan. Ko‘rinib turibdiki, yuqoridagi masxaralama ayrim tadqiqotchi olimlarning “satira bolalarga yot” degan qarashlarining g‘aliz ekanligini isbotlab turibdi. Qolaversa, bu borada rus folklorshunos olimlari V.P.Anikin, A.A.Kayev va M.N.Melnikovlar o‘z tadqiqotlarida bolalar yumor bilan birga satirasining ham mavjudligini, biroq hali bu satira tom ma‘nodagi estetik hodisa darajasiga ko‘tarilmaganligini, badiiyati odmiroq, goho hatto oshkora qo‘polroq xarakterga ega ekanligini dalillab ko‘rsatganlar. Yumor barcha yoshdagi bolalar tabiatiga xos bo‘lganligi bois ular o‘z tengqurlari, hatto kattalar nomlariga ham laqablar topib, qusurlaridan kulib tegishadilar. Satira esa o‘rta va katta yoshdagi bolalar xarakteriga xos, chunki ular hayotni faolroq mushohada eta oladilar va jamiyatdagi illatlarga o‘z munosabatlarini masxaralash orqali namoyon etadilar. Shu bois bolalar yumor qofiyadosh laqablarda va tegishmashoq janrida, satirasi esa masxaralama janrida yaqqol ko‘rinib turadi. Bu tarzda bolalar satirasini yumoridan farqlash tatar folklorshunosligida XX asrning 40-yillaridayoq N.Isenbet tomonidan amalga oshirilgan edi. U tatar bolalarining satirik qo‘shiqlarini “o‘rtanmashoq yoki o‘chakishmalar” deb atasa, yumoristik qo‘shiqlarini “parodiyalar” nomi ostida guruhlantiradi. Shuningdek, B. Shermuhammadov ham tojik bolalar og‘zaki ijodida uchraydigan shunday qo‘shiqlarni hazil qo‘shiqlari va hajviy qo‘shiqlar tarzida guruhlarga ajratadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada o‘zbek bolalar folklori tarkibidagi hazil va kulgiga asoslangan janrlar mohiyati muhokama qilinadi. Ulaning asosiy turlari tasnifi keltiriladi. Bolalar folklorining satirik va yumoristik xarakterdagi namunalari ga oid yondashuvlar o‘rganildi.

Tahlil va natijalar. Ko‘pgina tegishmashoqlarda ismi tilga olingan bola xarakteridagi belgili qusurlardan tegajag‘lik bilan kulinadi. Bolalar o‘rtog‘ining u yoki bu kamchiligiga tegishishi yumorni yuzaga keltiradi. Tegishmashoqlar ham, masxaralamalar ham shovqin solib aytishishlari bilan o‘zaro o‘xshasa-da, tegishmashoqlar ko‘pchilik bo‘lib ijro etiladi, masxaralama esa yakka holda aytiladi. Aksariyat tegishmashoqlarda u yoki bu personajning jismoniy xunukligini ifodalovchi so‘z-laqab aynan uning nomiga ohangdosh bo‘lishiga rioya qilingan va shu asosda ma‘naviy qusurdan kulishga zamin yaratgan:

Bolta baqaloq,
Yig'lar chaqaloq.
Kim yeb to'ymasa,
Bo'ladi yaloq.

Yuqoridagi tegishmachoqda Bolta ismli bolaning tashqi ko'rinishi, ya'ni baqaloqligi mazax qilinmoqda. Bunda ustalik bilan uning ismining bosh harfiga ohangdosh tarzda qusur topilgan.

Yumoristik kulgi namunalari chorlamalar tarkibida ham juda ko'p uchraydi. Bu janr namunalarida bolalar o'z tengqurlarini o'yinga chaqirish maqsadida o'rtog'ining holati va vaziyatidan kulish zaminida yuzaga keladi. Aksariyat hollarda o'yinga chiqishni istamayotgan bola kulgi ostiga olinadi:

Tomda tovuq yotarmi,
Oyog'lari qotarmi?
O'yin yoqmas bolalar
Namozshomdan qotarmi?
Keragada paxta bor,
Uyqung kelsa yotavor.
Onang qurg'ur qo'ymaydi,
Mushtday qorning to'ymaymi?
Kel-ho!

Bunday quvnoq yumor ayrim chorlamalarda o'yinga chaqirilayotgan bolaning holati va vaziyatidan kulish zaminida voqe bo'ladi. Navbatdagi chorlamada Rahima o'yinga chaqirilmoqda. Negadir, hadeganda u o'yinga chiqmayapti. Shunda dugonalari uni "Rahima xola" deb chaqirishga o'tib, uning keksalar singari o'yinga hafsalasizlik ko'rsatayotganini piching qilishadi:

Kun botdi-yu, kun botdi,
Rahima xola yotdi,
Yotdi-yu dong qotdi.

Bolalarning sevimli o'yinlari orasida shunday turi borki, bu o'yin to'laligicha hazil asosiga qurilgan bo'ladi. Shunday o'yinlardan biri Buxoro viloyati Qorako'l tumani Quvvacha qishlog'ida yashovchi Jo'ragul buvidan yozib olingan quyidagi ko'z boylag'ich o'yinidir:

- Buvijon, nimangiz yitdi?
- O'ymog'im bilan ignam yitdi.
- Bumi?
- Yo'q!
- Bumi?
- Yo'q!
- Bumi?

- Yo‘q!..
- Man oluvdim.

Bolalar o‘yinlari orasida ham yumoristik ruhga yo‘g‘rilgan turlari mavjud. Masalan, “Ot sug‘orish” o‘yinida yalqovlikdan kulinadi. Eng muhimi, bu kulgi bolalar xarakteri mantiqiga mos keladi:

O‘yinboshi: -Zamira, Zamira, Zamira,
Otni qaqa boylading?

Zamira: -Suvxariga boyladim.

O‘yinboshi: -Necha gramm suv berding?

Zamira: -Ikki gramm suv berdim,
-Bir gramni o‘zim ichdim,
-Qolganini chol ichdi.

Yana bir kulgi asosiga quriluvchi janrlardan biri chandishlardir. O‘zbek folklorshunosi H.Razzoqov chandishlarga bolalar askiyasi namunasi sifatida qarab, shunday ta‘riflaydi: “Chandishlar bolalar og‘zaki ijodiga xos yumordir. Unda ikki yoki bir qancha bolalar “raqib” tarafkash sifatida ishtirok etadilar:. Biroq shu o‘rinda ta‘kidlab o‘tish zarurki, chandishlarning yumorga aloqasi bo‘lmagan namunalari ham uchrab turadi.

Bu janr namunalarini ilk bor rus folklorshunos olimi G.S.Vinogradov “Bolalar satirik lirikasi” namunasi sifatida ilmiy jihatdan shunday ta‘riflagan edi: “Chandishlar bu boshqalarni ermak qilish hisobiga kayfiyatni ko‘tarishga qaratilgan beozor hazillardir”. Haqiqatan ham, chandishlarda g‘oyat odmi va sodda hazil elementi bor:

- Mana bu nima?
- Taroq.
- Yuzingni yalasin baroq.

Yuqoridagi chandish o‘rta yoshdagi bolalar tabiatiga xos bo‘lib, unda shunchaki ko‘rinib turgan biror predmet haqida so‘ralib, shu buyum bilan ohangdosh bo‘lgan hamda kulgiga sabab bo‘luvchi so‘z bilan javob qaytarilgan.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, bolalar sof fitratlariga xos holda hazil-mutoyibaga, beg‘ubor kulgiga, quvnoq tegishishlarga moyil bo‘lishadi. Bolalar folkloriga oid hazil va kulgiga asoslangan janrlar ijro xususiyatiga ko‘ra bir-biridan anchayin farq qiladi. Bu ularning o‘yinlarida, qo‘shiqdarida, og‘zaki poetik janrlarining ko‘pchiligida aks etib turadi. Bunday janrlarning tasnifoti hamda alohida nomlanishi ustida ko‘pgina folklorshunos olimlar bir qancha tadqiqotlar olib bormoqdalar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Jahongirov G‘. O‘zbek bolalar folklori.- Toshkent: O‘qituvchi, 1975.
2. Madayev O., Sobitova T., O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. – Toshkent., 2005.
3. Masharipova Z. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. T., 2008. -150 bet.
4. Mirzayev T., va b. O‘zbek xalq poetik ijodi. Toshkent: O‘qituvchi, 1990.
5. Safarov O. O‘zbek bolalar poetik folklori. Toshkent: O‘qituvchi, 1985.
6. Ro‘ziyeva M.Y. Bolalar folklori. O‘quv qo‘llanma. – B.: “Durdona”, 2022.-241 b.